

AHKOM OYATLARI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR TAHLILI

Ulug'bek Mirsadikov

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur'ondagi ahkom oyatlari haqida nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Ahkom oyatlari Qur'ondagi hukmlar, taqiqlar va ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Maqolada sahobalar va fiqhshunos olimlar orasidagi ixtiloflar, huquqiy sohalaridagi oyatlarning taqsimoti, shuningdek, Qur'onning hukm bayon qilish uslublari o'rganiladi. Qur'ondagi huquqiy oyatlarning soni va ularning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Maqola Qur'on va sunnat asosida islomiy huquqshunoslikning rivojlanishiga tilakdoshlar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ahkom oyatlari, Qur'on, fiqh, huquqiy hukmlar, nazariy tahlil, islomiy huquq.

Annotation. This article analyzes theoretical perspectives on the Ahkam verses of the Qur'an. The Ahkam verses include commandments, prohibitions, and guidelines related to various aspects of life. The study discusses the differences among the Companions and Islamic jurists, the distribution of legal verses in various fields, and the methods used in the Qur'an to present legal rulings. The number of legal verses and their social, political, legal, and moral implications are also examined. This article serves as a useful resource for those interested in the development of Islamic jurisprudence based on the Qur'an and Sunnah.

Keywords: Ahkam verses, Qur'an, jurisprudence, legal rulings, theoretical analysis, Islamic law.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические взгляды на айаты ахкам в Коране. Айаты ахкам содержат повеления, запреты и указания, касающиеся различных жизненных аспектов. Рассматриваются разногласия между сподвижниками и исламскими учёными, распределение юридических аятов по различным областям, а также способы изложения правовых норм в Коране. Анализируется количество юридических аятов и их социально-политические, юридические и нравственные аспекты. Статья будет полезна для тех, кто интересуется развитием исламского права на основе Корана и Сунны.

Ключевые слова: айаты ахкам, Коран, фикх, юридические постановления, теоретический анализ, исламское право.

Ahkom oyatlari Qurondagi buyruqlar, taqiqlar, ko‘rsatmalar va boshqa hayotiy muammolarga tegishli masalalarni bayon qilib beruvchi oyatlardir.

Sahobalar orasidagi fiqhiy masalalardagi ixtilof ommaviy musulmonlar orasiga kirganda jiddiy tus oldi va natijada fiqhiy mazhablar vujudga kela boshladi. Natijada ahli sunna va-l-jamoa mazhablari qatorida turli firqalar ham o‘z mazhablari bo‘yicha hukmlar chiqarilgan tafsirlarni birin-ketin yuzaga chiqara boshladilar.

Qur’onda fiqhiyhuquqiy masalalarga ko‘pincha umumiy yondashiladi va ayrim masalalar, masalan, huququlloh va meros masalalari mufassal shaklda yoritib beriladi.

Mashhur fiqhshunos olim Abdulvahob Xalof ko‘rsatishicha, fiqhiyhuquqiy masalalar bo‘yicha Qur’onda quyidagi sohalarda oyatlar mavjud:

1. Ibodatlar bo‘yicha - 140 oyat.
2. Oila huquqi bo‘yicha - 70 oyat.
3. Fuqarolik huquqi bo‘yicha - 70 oyat;
4. Jinoyat huquqi bo‘yicha - 30 oyat.
5. Sud va sud jarayoni bo‘yicha - 20 oyat.

6. Davlat huquqi sohasi bo‘yicha - 3 oyat mavjud. Hammasi bo‘lib Qur’onda - 333 ta huquqiy oyat bor.

Qur’onning boshqa ilohiy kitoblardan asosiy farqi shundan iboratki, u faqatgina aqidaviy-g‘oyaviy manba emas, balki qonun va axloq hamdir. Mashhur faylasuf Ibn Rushd (v. 595/1168 y.) fikricha, bu Qur’onning buyuk mo‘jizasi hisoblanadi¹.

Qur’oni Karim shar’iy hukmlar bayon qilish va taqdim qilishda bir nechta uslublarda kelgan:

1. Hukmlarni qisqacha va umumiy bayon qilish bilan kifoyalanish. Bu Qur’onda eng kelgan eng ko‘p uslub bo‘lib, aksari zakot va namozga oid hukmlarga o‘xshash oyatlar batafsil emas, balki qisqacha keltirilgan².

Masalan: وَأَحْلَلَّ اللَّهُ النَّيْعَ وَحَرَّمَ الرَّبَا

Va holbuki, Alloh tijoratni halol, riboni harom qildi. وَأَقِيمُوا الصَّلَاةَ وَآتُوا الزَّكَاةَ وَارْكَعُوا مَعَ الرَّاكِعِينَ Namozni to‘kis ado eting, zakotni bering va ruku’ qiluvchilar bilan birga ruku’ qiling.

2. Hukmlarni juzlarini va tafsilotlarini bayon qilish. Bunday uslub er-xotinlik harom bo‘lganlarga taalluqli oyatlarda kelgan:

¹ Жўзжоний А.Ш. Ислам ҳуқуқшунослиги. Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Т.: ТИУ, 2002. –Б. 23.

² <https://oliymahad.uz/14646>

حُرِّمَتْ عَلَيْكُمْ أُمَّهَاتُكُمْ وَأَبْنَاؤُكُمْ وَعَمَّاتُكُمْ وَخَالَاتُكُمْ وَبَنَاتُ الْأَخِ وَبَنَاتُ الْأُخْتِ وَأُمَّهَاتُكُمُ اللَّاتِي أَرْضَعْنَكُمْ وَأَخَوَاتُكُمُ مِنَ الرَّضَاعَةِ وَأُمَّهَاتُ نِسَائِكُمْ وَرَبَائِبُكُمُ اللَّاتِي فِي حُجُورِكُمْ مِنْ نِسَائِكُمُ اللَّاتِي دَخَلْتُمْ بِهِنَّ فَإِنْ لَمْ تَكُونُوا دَخَلْتُمْ بِهِنَّ فَلَا جُنَاحَ عَلَيْكُمْ وَحَلَائِلُ أَبْنَائِكُمُ الَّذِينَ مِنْ أَصْلَابِكُمْ وَأَنْ تَجْمَعُوا بَيْنَ الْأُخْتَيْنِ إِلَّا مَا قَدْ سَلَفَ إِنَّ اللَّهَ كَانَ غَفُورًا رَحِيمًا

Sizlarga (nikohi) harom qilingan (ayollar) – bu onalaringiz, qizlaringiz, opa singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa singillaringizning qizlari, emizgan “ona”laringiz, emishgan “opa-singil”laringiz, qaynonalaringiz, jinsiy yaqinlikda bo‘lgan xotinlaringizning qaramog‘ingizda bo‘lgan qizlari – jinsiy yaqinlikda bo‘lmagan bo‘lsangiz, sizlarga gunoh bo‘lmas – yana, o‘z pushti kamaringizdan bo‘lgan o‘g‘illaringizning xotinlaridir. Ikki opa-singilni qo‘shib (nikohlab) olishingiz (ham harom qilindi). Magar ilgari o‘tgan bo‘lsa (Alloh afv etar). Albatta, Alloh mag‘firatli va marhamatli zotdir.

Yana bunga o‘xshash oyatlar meros va taloqqa taalluqli oyatlarda ham keladi.

3. Hukmlarga oid kulliy qoidalarini keltirish. Ya’ni, Qur’oni Karimda hukmlar uchun umumiy qoidalar zikr qilingan. Quyida ularni ba’zilarini keltiramiz:

1) Qilingan amallarga insonning yolg‘iz o‘zi javobgarligi: Bu qoida bir nechta oyatlarda kelgan: وَلَا تَزِرُ وَازِرَةٌ وِزْرَ أُخْرَىٰ Hech bir jon boshqaning og‘irligini ko‘tarmas, yoki وَكُلُّ إِنْسَانٍ أَلْزَمَانَهُ طَائِرَةً فِي عَقِبِهِ Biz har bir insonning amalini bo‘yniga ilib qo‘yganmiz.

2) Zimmasidagi majburiyatlarga vafo qilishlik. Bu oyatga quyidagi oyat dalolat qiladi: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَوْفُوا بِالْعُقُودِ Ey, imon keltirilgan! Ahdnomalarga vafo qiling!

4. Bir hukmni bir nechta oyatlarda bo‘lib-bo‘lib keltirish. Ya’ni, Qur’onda bir hukm bir nechta oyatlarda keltirilgan. Shuning uchun mufassir yoki faqih bir hukmni chiqarish uchun Qur’onni barchasini yaxshilab o‘rganib chiqadi va shundan so‘ngina hukm beradi.

5. Hukm illat (sabab)larining bayoni. Qur’oni Karimning xususiyatlaridan biri, hukmlarni faqatgian yolg‘iz o‘zi bilan cheklanmasdan, uning illatlari va hikmatlarini ham keltirishlikdir. Masalan: Qur’on namozga buyurayotgan vaqtda, bu hukm sababli shariatga kiritilgan illatni zikr qiladi: وَأَقِمِ الصَّلَاةَ إِنَّ الصَّلَاةَ تَنْهَىٰ عَنِ الْفَحْشَاءِ وَالْمُنْكَرِ Va namozni to‘kis ado et, albatta, namoz fohisha va munkar ishlardan qaytarur.

Ro‘zaning musulmonlarga farz qilingan o‘rinda esa, bu shariatga kiritilish sababi keltirib o‘tilgan: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا كُتِبَ عَلَيْكُمُ الصِّيَامُ كَمَا كُتِبَ عَلَى الَّذِينَ مِنْ قَبْلِكُمْ لَعَلَّكُمْ تَتَّقُونَ

Ey, imon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro‘za farz qilindi. Shoyadki, taqvodor bo‘lsalaringiz. Shuningdek, qasosning shariatga kiritilish sababi ham zikr qilingan: وَلَكُمْ فِي الْقِصَاصِ حَيَاةٌ يَا أُولِي الْأَلْبَابِ لَعَلَّكُمْ تَتَّقُونَ

Sizlarga qasos olishda hayot bor. Ey, aql egalari! Shoyadki, taqvodor bo‘lsangiz.

6. Hukmlarni aqida va odob-axloq bilan bog‘liq holatda keltirish. Qur’onning yana bir uslublaridan biri hukmlarni Allohga, oxirat kuniga imon keltirish kabi aqida, odob-axloq, taqvo qilishlik, mukofat, jazo va bu sababli dunyo va oxiratdagi foyfalar kabilarga o‘zaro

aloqadorligidir. Masalan: Qur'on ribodan qaytarayotganda uni iymon bilan qaydlanadi: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا اتَّقُوا اللَّهَ وَذَرُوا مَا بَقِيَ مِنَ الرِّبَا إِن كُنتُمْ مُؤْمِنِينَ Ey, iymon keltirganlar! Agar mo'min bo'lsangiz, Allohga taqvo qiling va riboning sarqitini ham tark qiling.

Alloh taolo yetimni molini yeyishlikfdan qaytarganda qattiq jazo borligini birga keltirdi. إِنَّ الَّذِينَ يَأْكُلُونَ أَمْوَالَ الْيَتَامَىٰ ظُلْمًا إِنَّمَا يَأْكُلُونَ فِي بُطُونِهِمْ نَارًا وَسَيَصْلَوْنَ سَعِيرًا

Albatta, yetimlarning molini zulm ila yeganlar qorinlarida olovni yegan bo'lurlar. Va, shubhasiz, do'zaxga kirurlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ahkom oyatlari tahlili Islom huquqining murakkab va chuqur mazmunini ochib beradi. Ushbu oyatlar nafaqat aniq buyruq va taqiqlarni, balki qonunlarning asosiy sabab va hikmatlarini ham o'zida mujassam etgan. Sahobalar va keyingi olimlar orasida bu oyatlarning talqini va tatbiqi xilma-xil bo'lib, Islom fiqhining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qur'onda huquqiy hukmlar qisqacha va batafsil shakllarda berilgan, ko'pincha ular axloqiy va e'tiqodiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Ahkom oyatlarini nazariy jihatdan chuqur tushunish Qur'oni Karimni nafaqat diniy, balki ijtimoiy va huquqiy yo'riqnoma sifatida qadrlash imkonini beradi. Shu sababli, Qur'onning huquqiy qoidalarini kontekstual va tizimli yondashuv bilan o'rganish, zamonaviy musulmon jamiyatlaridagi huquqiy va axloqiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.